O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI
VOBKENT TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko’chasi 55-uy, tel: (65) 33-21-550, vobkent.t@exat.uz

2022 - yil 12 - dekabr 586-2-33-Q/22 Vobkent tuman hokimligi

Vobkent tumani hududidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qaroriga asosan Vobkent tumani hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi (U.Tursunov) hamda qabristonlar bo‘yicha mas’ullar:

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

Ushbu qaror “Vobkent hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytida joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining o‘rinbosarlari

M.Malikov va R.Azamatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **F.Umarov**

Vobkent tuman hokimining
2022 yil 12 dekabrdagi
586-2-33-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Vobkent tuman
hokimining 2022-
yil “_”-
_____-son qaroriga

ILOVA

Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori

so‘m

T\r	**Xizmat turi**	**O‘lchov birligi**	**Tuman bo`yicha**
1.	Go‘r qazish	1 o‘ringa	Ba`zaviy hisoblash miqdorining 0,5 baravari
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	Bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Ba`zaviy hisoblash miqdorining 0,25 baravari
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	bepul